KONSTITUTSIYA – TARAQQIYOT QOMUSI

Abdusalomova Maftuna G‘ofurjon qizi, Guliston davlat pedagogika instituti magistranti
e-mail: mabdusalomova58@gmail.com

Annotatsiya. Konstitutsiya – xalqning ezgu orzu intilishlarini o‘zida mujassam etgan, oliy yuridik kuchga ega bo‘lgan muhim hujjat. Ushbu maqolada Yangi O‘zbekistonning Xalq Konstitutsiyasi va ushbu Konstitutsiyamizga kiritilgan bir qator o‘zgartirish va qo‘shimchalar yoritilgan. Konstitutsiyaning millat taraqqiyoti va ravnaqi yo‘lidagi beqiyos xizmati va ahamiyati ochib berilgan.

Kalit so‘zlar: Konstitutsiya, xalq, davlat, fuqaro, ijtimoiy davlat, huquq ustuvorligi, pedagog maqomi, qonun, qadriyat, inson, ommaviy axborot vositalari;

КОНСТИТУЦИЯ – ЭНЦИКЛОПЕДИЯ РАЗВИТИЯ

Аннотация. Конституция – важный документ, воплощающий чаяния народа и имеющий высшую юридическую силу. В данной статье описывается Народная Конституция Нового Узбекистана и ряд изменений и дополнений к этой Конституции. Раскрыта ни с чем не сравнимая заслуга и значение конституции для развития и процветания нации.

Ключевые слова: конституция, народ, государство, гражданин, социальное государство, правовое государство, статус педагога, закон, ценность, человек, средства массовой информации;

CONSTITUTION – ENCYCLOPEDIA OF DEVELOPMENT

Annotation. The Constitution is an important document that embodies the noble aspirations of the people and has the highest legal force. This article discusses the People's Constitution of New Uzbekistan and a number of amendments and additions to this Constitution. The invaluable service and importance of the Constitution for the development and prosperity of the nation are revealed.

Keywords: Constitution, people, state, citizen, social state, rule of law, status of teacher, law, value, human, mass media;

Konstitusiya – kelajakda yuksalish, kamol topish uchun intilayotgan, xalqini, millatini taqdiri uchun kurashayotgan, inson manfaatlarini har nedan ustun biladigan, huquq ustuvorligini qaror toptirishga bor kuch va g‘ayrati bilan harakat qilayotgan barcha toleyi baland davlatlarning oliy bosh qomusi, barcha qonunlarining asosi va xalqining orzu intilishlarini, maqsad-u qarashlarini ifodalaydigan yagona, oliy yuridik kuchga ega bo‘lgan muhim ahamiyatga ega hujjatdir. Zero Konstitutsiyamizning muqaddima qismida bejiz quyidagi fikrlar keltirilmagan:

“Biz O‘zbekiston xalqi: fuqarolarning munosib hayot kechirishini, millatlararo va konfessiyalararo totuvlikni, ko‘p millatli jonajon O‘zbekistonimizning farovonligini va gullab-yashnashini ta’minlashni maqsad qilgan holda, ushbu Konstitutsiyani qabul qilamiz va e’lon qilamiz. [1] 32 yillik tarixga ega bo‘lgan oliy

bosh qomusimiz mana necha yillardan beri xalqimizning ezgu maqsadlarini amalga oshirishga, yurtimizning har taraflama ravnaq topishiga xizmat qilib kelmoqda.

Barchamizga ma’lumki, respublikamizning birinchi Prezidenti Islom Abdug‘aniyevich Karimovning say-harakatlari, mashaqqatli mehnatlari va adolatli, xalqparvar siyosatlari xalqimiz Konstitutsiya yaratilishi uchun munosib asos bo‘lib xizmat qilgan. Konstitutsiyamizda belgilangan 128 moddaning har birida o‘zida inson manfaatlari ustunligi, jamiyat va xalq farovonligi va osoyishtaligini ta’minlash davlatimizning birinchi galdagi muhim vazifasi ekanligi o‘z aksini topgan edi.

Buni qarangki, Alloh nazari tushgan, muqaddas bu zaminda istiqomat qilayotgan O‘zbek xalqidan ham Yaratgan o‘z marhamatini chetlab o‘tmagani yana bir karra o‘z isbotini topdi. O‘zbekistonning mehmondo‘st, mehnatsevar xalqiga 2016-yil 4- dekabr sanasida yana bir toleyi baland, istiqboli porloq, elim deb, yurtim deb yonib yashaydigan Davlat Rahbari nasib qildi. Prezidentimizning 7 yillik munosib mehnatlari natijasi o‘laroq o‘zbek xalqi bir musht bo‘lib birlashdi desak hech adashmaymiz. Buning yorqin isboti sifatida shuni aytish mumkinki, 2023-yilda mamlakatimizning oliy qomusini yanada takomillashtirish va bir qator o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish taklifi Prezidentimiz Shavkat Miramonovich tomonidan xalq muhokamasiga taklif etildi. Xalqimiz esa o‘z davlati va millatining kelajagiga befarq bo‘lmagan, faol va jonkuyar, elparvar fuqaro ekanliklarini, yurtboshimizning har jabhada olib borayotgan siyosatlariga hamroh va yelkadosh ekanliklarini 2023-yil 30-aprel sanasida o‘tkazilgan referendumdagi faol ishtiroklari bilan isbotlashdi, albatta. Ushbu referendum asosida Konstitutsiyamizga 50 dan ziyod o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritildi. Bu o‘zgartirishlarning qariyb 65 foizi esa xalqimizning fikr va mulohazalari asosida shakllantirildi. Ushbu ko‘rsatkich esa dunyo hamjamiyatiga O‘zbek xalqining o‘z davlati kelajagiga mutlaqo befarq emasligini isbotladi.

Bugungi kunda Konstitutsiyamiz Muqaddima, 6 bo‘lim, 27 bob, 155 moddadan iborat qilib tuzilgan. Konstitutsiyamizdagi normalar soni ham 275 tadan 434 taga oshgan. Bosh qomusimizga kiritilgan asosiy va muhim o‘zgartirishlar qatoriga quyidagilarni kiritish mumkin:

1. Konstitutsiyada O‘zbekiston - suveren, demokratik, ijtimoiy va huquqiy davlat ekanligi aniq belgilab qo‘yildi. Endilikda kuchli ijtimoiy himoya va muhtojlarga g‘amxo‘rlik – davlatimiz siyosatining asosiy yo‘nalishi bo‘lib qoladi.

2. Konstitutsiyada har kimning uy-joyga ega bo‘lish huquqi belgilandi. Ushbu normaning amal qilishi uy-joyga muhtoj oilalarning, xususan yosh oilalarning uy – joyga ega bo‘lishini ta’minlab, xalqimizning hayotdan rozilik darajasini oshiradi.

3. Konstitutsiyamizda aholi salomatligini oshirish bilan bog‘liq normalar 4 barobarga ko‘paydi.

4. Ko‘p uchraydigan 20 turdagi kasalliklar bo‘yicha birlamchi bo‘g‘indagi bepul analiz turlari 15 tadan 25 tagacha, tekshiruvlar 10 tadan 20 tagacha, dorilar esa 64 tadan 90 tagacha oshirildi.

5. Ta’lim olish huquqi va imkoniyati kengaytirildi, o‘qituvchilar konstitutsiyaviy maqomga ega bo‘ldilar. Ta’lim va ilm fanga oid normalar qariyb 2 barobarga oshirildi. Ma’lumot tariqasida aytish mumkinki, 2017-yilgacha oliygohlarga kirishda davlat grandlari soni faqat qisqarib kelgan bo‘lsa, so‘nggi 6 yil ichida grandlar soni 2 barobar oshirildi va 40 mingtaga yetdi. Magistratura uchun esa 5 barobarga oshirildi.

6. Ilk bor shaxsni ushlash chog’ida unga tushunarli tilda uning uning huquqlari va ushlab turilishi asoslari tushuntirilishi shartligi, ayblanuvchi va sudlanuvchilarga o’ziga qarshi ko’rsatma bermaslik (xalqaro e’tirof etilgan miranda qoidasi), sukut saqlash huquqi berildi.

7. Ommaviy axborot vositalari faoliyatiga to‘sqinlik qilish yoki aralashish qonunga muvofiq javobgarlikka sabab bo‘lishi belgilandi. Ushbu norma

jurnalistlarning erkin, turli ma’muriy bosimlardan qo’rqmasdan faoliyat yuritishini ta’minlaydi, albatta. [2]

8. Konstitutsiyada inson huquq va erkinliklari oliy qadriyat darajasiga ko‘tarildi, huquq ustuvorligi belgilab qo‘yildi. Huquq ustuvorligiga erishishda jamoatchilik nazoratiga suyanishimiz alohida ta’kidlab o‘tildi. [3]

Sening manzilingni ko‘zlagan karvon,
G‘aznaviy, Temuriy , Boburiy, Davron.
U Karvon boshida Navoiy sarbon,
Ey mening o‘zligim g‘urur nomusim,
Konstitutsiyam – baxtim qomusim.

Yuqorida keltirilgan shu va boshqa bir qator o‘zgarishlar mamlakatimizda Konstitutsiyamizning ahamiyatini yanada oshirdi. Konstitutsiyadagi har bir o‘zgarishga diqqat qilsangiz barchasida biz insonlarning manfaatlarimiz, huquq va imkoniyatlarimiz madh etilayotganini his qilasiz, albatta. Zero, bu Vatanda Prezidentimiz ta’kidlaganlaridek Inson qadri oliy qadriyatdir.[3]

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. 30-aprel 2023 yil.

2. Shavkat Mirziyoyev. Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2022 yil.

3. Pirxanov Davron. “Huquq ustuvorligi tushunchasining Qonun ustunligi prinsipi bilan bog‘liqligi. – Toshkent: Talqin va tadqiqotlar jurnali. 2022 yil.